ТЕРМИЗ ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

Илмий-инновацион журнал

Jurnal OAK Rayosatining 2022-yil 30-sentabrdagi 325/6-son qarori bilan filologiya fanlari bo'yicha doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan

2021-yildan buyon nashr etiladi

2026 / № 2,2

Termiz – 2026

Muassis:
Termiz davlat universiteti

PHILOLOGICAL RESEARCH:
LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR:
TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ:
ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

ILMIY-INNOVATSION JURNAL

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020 yil 19 oktyabrda 1122 raqami bilan ro'yxatga olingan. Matnlarda foydalanilgan misol, ko'chirma va ma'lumotlar aniqligi uchun mualliflar javobgardir. Jurnaldan ko'chirib bosilganda manba qayd etilishi shart.

Bosishga ruxsat etildi: 20.06.2026
Qog'oz bichimi: 70x85
Bosma tabog'i: 5.94
Ofset bosma. Ofset qog'ozi
Adadi: 100
Bahosi kelishilgan narxda
Buyurtma: 155-son

«TerDU bosmaxonasi»da chop etildi
Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy

Tahririyat manzili:
190111, Termiz shahri,
Barkamol avlod ko'chasi, 43.
Telefon: +998990 377 77 23,
+99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz
Rasmiy sayt:
https://journaltersu.uz

BOSH MUHARRIR:
Abduqodir TOSHQULOV,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

TAHRIR HAY'ATI:

Bekpo'lat Umurqulov, filologiya fanlari doktori, professor (bosh muharrir o'rinbosari)
Shoxista Maxmaraimova, filologiya fanlari doktori, professor (mas'ul muharrir)
O'ral Xoliyorov, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Olmos Ulviy Binnatova, f.f.d., professor (Ozarbayjon)
Karl Rayxl, f.f.d., professor (Germaniya)
Vali Savash yelok, f.f.d., professor (Turkiya)
Dorota Silviya, f.f.f.d. (PhD), dotsent (Polsha)
Zabita Mahammad qizi Teymurlu, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent (Ozarbayjon)
Tarana Imomverdi qizi Xojieva, filologiya fanlari doktori, professor (Ozarbayjon),
Muslihiddin Muhiddinov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Ibodulla Mirzayev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Abdi Mamatov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Suyun Karimov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Muhammadxon Hakimov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Nafas Shodmonov f.f.d., professor (O'zbekiston)
Dilmurod Quronov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Murodqosim Abdiyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Baxtiyor Mengliyev, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Normat Y o'ldoshev, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Baxtiyor Xolmuxamedov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Bobonazar Murtazayev, f.f.n., dotsent (O'zbekiston)
Asqar Eshmo'minov, f.f.d., professor (O'zbekiston)
Obidjon Shofiyev, f.f.f.d. (PhD), dotsent (O'zbekiston)
Zafar Umurqulov, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Nurali Amonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Hakim Ahmedov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdulla Xudoyqulov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Ahad Shukurov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Eshnazar Jabborov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Abdumurod Arslonov, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sirojiddin Turdimurodov, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Umida Raximova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Gulchehra Begmatova, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Nargis Qurbonazarova, filologiya fanlari doktori, dotsent (O'zbekiston)
Muyassar Xolova, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Shoira Omonturdiyeva, f.f.d., dotsent (O'zbekiston)
Sherzod Turdiqulov, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Alibek Omonturdiyev, f.f.f.d. (PhD) (O'zbekiston)
Humayun Nadim Muhammad, f.f.f.d., dotsent (O'zbekiston)

Texnik muharrir: Bahodir To'raliyev

Учредитель:
Термезский государственный университет

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM
ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

НАУЧНО-ИННОВАЦИОННЫЙ ЖУРНАЛ

Зарегистрировано Агентством информации и массовых коммуникаций при Администрации Президента Республики Узбекистан от 19 октября 2020 года под номером 1122.

Авторы несут ответственность за точность приведенных в текстах примеров, отрывков и данных. Необходимо указывать источник при копировании из журнала.

Разрешено к печати: 20.06.2026
Размер бумаги; 70x85
Печатный лист: 5.94
Офсетная печать. Офсетная бумага
Тираж: 100. Цена договорная
Заказ: 155

Печатано в «Типографии ТерГУ»
ул. Баркамол авлод 43, г. Термез

Адрес редакции:
190111, г.Термез, ул. Баркамол авлод, 43.
Телефон: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail: philologicalresearch@umail.uz

Официальный сайт: https://journaltersu.uz

ГЛАВНЫЙ РЕДАКТОР:
Абдукадир ТАШКУЛОВ,
доктор экономических наук, профессор

РЕДАКЦИОННАЯ КОЛЛЕГИЯ:

Бекпулат Умуркулов, доктор филологических наук, профессор (зам. главного редактора)
Шохиста Махмараимова, доктор филологических наук, профессор (ответственный редактор)
Урал Холияров, ф.ф.ф.д. (. PhD), доцент (Узбекистан)
Олмос Улвий Биннатова, д.ф.н., профессор (Азербайджан)
Карл Райхл, д.ф.н., профессор (Германия)
Вали Саваш Елок, д.ф.н., профессор (Турция)
Дорота Сильвия, PhD, доцент (Польша)
Забита Магомед кызы Теймурлу, доктор философии по филологии, доцент (Азербайджан)
Тарана Имамверди гызы Хаджиева, доктор наук, профессор (Азербайджан)
Муслихиддин Мухиддинов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Ибодулла Мирзаев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Абди Маматов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Суюн Каримов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мухаммадхон Хакимов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нафас Шодмонов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Дилмурод Куронов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Мурадкасим Абдиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Бахтиёр Менглиев, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Нормат Юлдашев, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бахтиёр Холмухамедов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Бобоназар Муртазаев, к.ф.н., доцент (Узбекистан)
Аскар Эшмуминов, д.ф.н., профессор (Узбекистан)
Обиджон Шофиев, д.ф.ф.н. (PhD), доцент (Узбекистан)
Зафар Умуркулов, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Нурали Амонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хаким Ахмедов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдулла Худайкулов, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Ахад Шукуров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Эшназар Джаббаров, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Абдумурод Арслонов, д. ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Сирожиддин Турдимуродов, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Умида Рахимова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Гульчехра Бегматова, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Наргис Курбаназарова, доктор наук, доцент (Узбекистан)
Муяссар Холова, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шаира Амонтурдиева, д.ф.н., доцент (Узбекистан)
Шерзад Турдикулов, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Алибек Омонтурдиев, д.ф.ф.н. (PhD) (Узбекистан)
Хумаюн Надим Мухаммад, д.ф.ф.н., доцент (Узбекистан)

Технический редактор: Баходир Туралиев

Institutor:
Termez State University

PHILOLOGICAL RESEARCH: LANGUAGE, LITERATURE, EDUCATION

FILOLOGIK TADQIQOTLAR: TIL, ADABIYOT, TA'LIM

ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ: ЯЗЫК, ЛИТЕРАТУРА, ОБРАЗОВАНИЕ

SCIENTIFIC-INNOVATIONAL JOURNAL

Registered by the Agency for Information and Mass Communications under the President's Administration of the of the Republic of Uzbekistan on October 19, 2020 under number 1122.

The authors are responsible for the accuracy of the examples, passages and data provided in the texts. The source must be specified when copying from the journal.

Approved for printing: 20.06.2026
Size of the paper: 70x85
Printed sheet: 5.94. Offset printing.
Offset paper. Circulation: 100
Price is negotiable
Order: 155. Printed at the «Printing House of the TerSU»
43, Barkamol avlod str. Termez city.

Address of Editorial Office:
190111, Barkamol avlod str., 43, Termez city.
Phone: +998990 377 77 23, +99895 986 07 77

E-mail:
philologicalresearch@umail.uz

Official website:
https://journaltersu.uz

EDITOR IN-CHIEF:
Abdukodir TASHKULOV,
doctor of economic sciences, professor

EDITORIAL BOARD:

Bekpulat Umurkulov, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (deputy chief editor)
Shohista Makhmaraimova, doctor of philological sciences, professor (Uzbekistan) (editor-in-chief)
Ural Kholiyorov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Olmos Ulviy Binnatova, doct.of philol. sciences, professor (Azerbaijan)
Karl Rayxl, doct.of philol. sciences, professor (Germany)
Vali Salvash Elok, doct. of philol. sciences, professor (Turkey)
Dorota Silvia, PhD, associate professor (Poland)
Zabita Magomed kyzy Teymurlu, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Azerbaijan)
Tarana Imamverdi gizi Khadzhieva, Doctor of Sciences, Professor (Azerbaijan)
Muslihiddin Mukhiddinov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Ibodulla Mirzaev, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Abdi Mmatov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Suyun Karimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muhammadkhon Khakimov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Nafas Shodmonov, doct.of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Dilmurod Kuronov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Muradkasim Abdiyev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Mengliev, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Normat Yuldashev, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bakhtiyor Kholmukhamedov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Bobonazar Murtazaev, cand.of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Askar Eshmuminov, doct. of philol. sciences, professor (Uzbekistan)
Obidjon Shofiev, PhD, associate professor (Uzbekistan)
Zafar Umurkulov, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Nurali Amonturdiev, PhD (Uzbekistan)
Hakim Akhmedov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdulla Khudaykulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Ahad Shukurov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Eshnazar Jabbarov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Abdumurod Arslonov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Sirojiddin Turdimurodov, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Umida Rakhimova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Gulchekhra Begmatova, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Nargis Kurbanazarova, Doctor of Sciences, Associate Professor (Uzbekistan)
Muyassar Kholova, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Shoira Omonturdiyeva, doct. of philol. sciences, associate professor (Uzbekistan)
Sherzod Turdikulov, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)
Alibek Omonturdiev, Doctor of Philosophy in Philology (Uzbekistan)
Humayun Nadim Muhammad, Doctor of Philosophy in Philology, Associate Professor (Uzbekistan)

Technical editor: Bakhodir Turaliyev

МУНДАРИЖА

TILSHUNOSLIK

ШАКЕНОВА МАЙГУЛЬ ТУЛЕГЕНОВНА
Прецедентные имена как маркеры культурной памяти в современных медиа Казахстана 7

КОДИРОВА МУКАДДАС ТОГАЕВНА
Синергетическая трансформация узбекского и английского бизнес-дискурса 11

BAYNAZAROV ZOKIR
«Chig'atoy gurungi» va uning o'zbek tilshunosligi tarixidagi o'rni 16

XOLNAZAROV UMID ERKINOVICH
Disleksiya neyrolingvistik muammo sifatida 22

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA
«Devoni lug'ati-t-turk» asaridagi jangnoma she'rlar va ularning semantikasi 28

RAHIMOV USMONJON ERGASHEVICH
Pragmalingvistika va unga bog'liq hodisalarni antroposentrik nazariya asosida tadqiq etish 33

ABDULLAJONOVA MADINA TO'LANBOY QIZI
Disgrafiyaga xos xatolarning yoshga bog'liq dinamikasi 39

КАЛДЫГОЗОВА С.Е.
Термины-эпонимы в психологических блог-дискурсах 46

ASADOV ALISHER BAHODIROVICH
Preventiv nutqiy aktlarning lingvopragmatik va sotsiopragmatik jihatlari 39

ERIMMATOVA ZUXRA AZIMBOYEVNA
Qo'lyozmalarda kotiblarning (nusxa ko'chiruvchilarning) eng muhim amallari 54

ELOVA DILRABO QUDRATILLAYEVNA
Normativ matn talqinida sintaktik qamrovning o'rni 60

NORMO'MINOV SHERZOD TO'YCHIYEVICH
O'zbek shevalarida leksik tanlovning yosh omili: avlodlararo qatlamlanish 65

SAMINOV ABDUMALIK INOMJONOVICH
Oksyumoronning sintaktik-stilistik va lingvopoetik xususiyatlari (Shavkat Rahmon she'riyati misolida) 68

FAYZIYEVA AZIZA ANVAROVNA
Axloqiy-hissiy konseptlar: sof hissiy va sof axloqiy konseptlardan farqlanish mezonlari 72

ABDULLAYEV DAVRONBEK DILMUROD O'G'LI
«Maoniy an-nahv» kitobida «na'ti maqtu'» (uzilgan sifat) hodisasi 76

BABAXANOVA DILAROM AXMATXANOVNA
Ona tili boyligi – madaniy nutqni shakllantiruvchi vosita 79

ИСЛОМОВА ДИЛНОЗА УЙГУН КИЗИ
Понятие и функции социальной рекламы в обществе 82

ASATULLOYEVA MUHAYYO ALISHER QIZI
Til birliklarining pragmalingvistik xususiyatlari: informema va pragmema oppozitsiyasida frazeologik birliklarning o'rni 86

МУНДАРИЖА

MURODULLAYEVA SARVINOZ YORQIN QIZI
Xudoyberdi To‘xtaboyev hikoyalarida milliy-madaniy birliklar tarjimasi: milliy koloritni saqlash strategiyalari 90

O‘ROQOVA MUBORAK
Sud-tibbiy ekspertiza matnlarining diskursiv xususiyatlari 94

TURSINBAYEVA SHAXLOXON ALIMBAYEVNA
Badiiy matnda sharqona muloqot etiketi va nutqiy strategiyalar 97

XALIQULOVA MUSHARRAF EGAMNAZAR QIZI
Ijtimoiy reklama diskursida til, ma’no va madaniyat munosabati 102

ABDUMUMINOVA DILNOZA XOMIT QIZI
Ingliz tilida holat fe’llarining metaforik kengayishi 105

TURAEVA ORASTA
Ways of expressing irony in the heroic dramas of John Dryden 109

ADABIYOTSHUNOSLIK

RAHMATOVA GAVHAR OMONOVNA,
SOTVOLDIYEV SIROJIDDIN MAXAMMADDIN O‘G‘LI
«Devonu lug‘ati-t-turk» asaridagi she‘riy uzindilar badiiyati 116

RAIMOVA SAYYORA ZAITOVNA
Intertekstual birliklarning poetik vazifasi 123

TASHPULATOV MUXRIDDIN RAXMATULLA O‘G‘LI
Jadid dramaturgiyasining g‘oyaviy-badiiy xususiyatlari 127

FAYZULLAYEVA NIGINA SUR’AT QIZI
Badiiy tafakkurda jinoyat va psixologiya o‘zaro aloqadorligining estetik talqini 132

БУРАНОВА ЖАМИЛА АЛИЕВНА
Влияние мифологических мотивов создания и разрушения на сюжет романа 135

МУҲАММАД АБДУЛЛАЕВ
Убайдий ижодида салафлари ижоди таъсири 139

RAMAZON ABDULLAEV
Muizziy qasidalarda lirik mazmun va badiiy mahorat 142

TA’LIM

XALILOVA MUYASSARXON TOLIPOVNA
Bog‘lanishli matn yaratish malakasini rivojlantiruvchi zamonaviy metodlar 145

Filologik tadqiqotlar: til, adabiyot, ta'lim. 2026; 5
ISNN: 2181-1741 (Print)
ISNN: 2181-1725

«DEVONU LUG'ATI-T-TURK» ASARIDAGI SHE'RIY UZINDILAR BADIIYATI

Rahmatova Gavhar Omonovna,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti,
filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori

Sotvoldiyev Sirojiddin Maxammaddin o'g'li,
Oriental universiteti Tillar-1 kafedrasi dotsenti v.b.

Sharq mumtoz poetikasida ma'naviy, lafziy va mushtarak atalmish she'r san'atlari poetik tasvirda turlicha vazifalarni ado etib, har xil uslubiy yo'nalishni hosil qiladi. Jiddiy e'tibor berilsa, butunlay boshqa-boshqa guruhga mansub san'atlar tamoyil jihatidan bir-biriga yaqin ekanligi ko'zga tashlanpdi. Binobarin, mavjud she'r satrlarini uslubiy vazifalari e'tibori bilan ham muayyan tabaqalarga ajratish mumkin.

«Badiiylik ilmi so'z rang-barangligi, ma'no darajalari va ifoda imkoniyatlari, gapda so'zlar kombinatsiyalari va ma'no o'zgarishlari, badiiy-tasviriy vositalari ta'sirida obrazlilikning kuchayishi, misralar munosabati, fikriy tanosib va tafovutlardan voqif etadi. Go'yo so'z va misra olmos va pichoq bo'ladi-yu, she'riy san'atlar esa ularni charxlaydi»[1].

Adabiyotshunoslik ilmining asosiy sohalaridan biri bo'lgan ilmi bade'ga doir dastlabki asarlar arab olimlari tomonidan yaratildi. Bu turdagi asarlarning fors tilida yaratilishi XI asrga borib taqaladi.

O'zbek adabiyotshunosligida mumtoz she'riy san'atlarni o'rganish, asosan, 1960 yillardan keyingi davrga to'g'ri keladi. O'zbek adabiyotshunosligiga bag'ishlangan yirik asarlar va ilmiy maqolalarda ba'zan she'riy san'atlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Ularning ko'pchiligi Alisher Navoiy asarlari bilan bog'liq holda shoir mahoratini belgilash asosida o'rganilgan. Jumladan, «O'zbek tili va adabiyoti» jurnali sahifalarida Yo.Ishoqovning «Mumtoz adabiyot poetikasidan ma'lumotlar» rubrikasi ostida e'lon qilingan 10 dan ortiq she'riy san'atlar haqidagi maqolalari, Maqsud Shayxzodaning «Ustod san'at xonasida» tadqiqotlari fikrimiz dalilidir[2].

Bizgacha yetib kelgan manbalar turkiy adabiyotda she'rning qadimdan mavjud ekanligini tasdiqlaydi. She'r o'ziga xos qonun-qoidalar asosida vujudga keladi. Uning yaratilishida badiiy tasvir vositalari ham muhim rol o'ynaydi. Badiiy tasvir vositalarining paydo bo'lishi bevosita she'r bilan bog'liq hodisa hisoblanadi. Demak, she'riyatning shakllanishi asta-sekin u haqidagi ilmiy tafakkurni yuzaga keltiradi. Biroq islomdan avvalgi davrdagi adabiyotshunoslik haqida bizgacha to'liq ma'lumot yetib kelmagan. Shu sababli qadimgi turkiy she'rlaridagi badiiy tasvir vositalarini tadqiq etish uchun o'rta asrlar adabiyotshunosligidagi atamalardan foydalanish, maqsadga muvofiq.

She'r san'atlari to'g'risida nazariy fikrlarni mukammal tadqiq etilishi islom davri adabiyotshunosligi bilan bog'liq. Shu bois qadimgi turkiy adabiyotdagi badiiy vositalarning nomlarinigina keyingi davr adabiyotshunosligi mahsuli deb qarash lozim. Badiiy tasvir vositalarining o'zi esa qadimgi turkiy she'riyatning ichki imkoniyatlari asosida vujudga kelgan va ularning shakllanishi islom davriga xos hodisa emas. Qadimgi turkiy og'zaki adabiyotdagi badiiy vositalarni tekshirish ularni turkiy adabiyotdagi tadrijiy taraqqiyotini o'rganish imkonini beradi.

«Devonu lug'ati-t-turk» orqali yetib kelgan she'riy parchalarda badiiy tasvir vositalari har bir she'rning mohiyatiga ko'ra o'ziga xos xususiyatlari bilan namoyon bo'ladi. Ular badiiyatini tahlil etish natijasida she'riy san'atlarning qadimgi turk og'zaki she'riyati poetikasidagi o'rni ko'rish mumkin.

Badiiy tasvir vositalarining shakllanishi badiiy tafakkur taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liq. Bu – poetik san'atlarning genezisi juda qadimda ekanligini bildiradi. «Devonu lug'ati-t-turk»dagi she'riy parchalarda qo'llanilgan badiiy san'atlarni qiyosiy o'rganish qadimgi turkiy adabiyotdagi mavjud badiiy vositalar ilk klassik davr adabiyotida ham davom etganligini ko'rsatadi. Bundan turkiy adabiyotning uzluksiz taraqqiyotda bo'lganligini sezish qiyin emas.

Asarda keltirilgan lirik she'riy uzindilarda bir qancha lafziy va ma'naviy san'atlarni uchratish mumkin. Misol uchun: **tajnis**.

Tajnis mumtoz she'riyatda eng ko'p qo'llaniladi-

[1] Раҳмонов В. Шеър санъатлари. – Ленинобод, 1972. – Б. 10.
[2] Исҳоқов Ё. Шеърий санъатлар. Ийҳом // Ўзбек тили ва адабиёти. – Т. 1970. – № 1. – Б. 88.

gan badiiy tasvir vositalaridan biri hisoblanadi. Tajnis so'zi «jinsdosh» degan lug'aviy ma'noga ega. Shakli bir xil, ammo turli ma'nolarni bildiruvchi so'zlarni qo'llash va shu tariqa so'z o'yiniga asoslanish tajnis san'atining mohiyatini tashkil qiladi.

Asarda ko'p uchraydigan tajnis turlaridan biri muzori' tajnisdir. Unda «tajnis hosil qilayotgan lafzlardagi undosh tovushlardan biri orasida farq bo'ladi va bu farq qiluvchi tovushlarning maxraji o'zaro yaqin bo'lishi shart»[1]. Quyidagi baytda muzori' tajnis *bulnar* va *bulnap* so'zlari oxiridagi *r-p* tovushlarida bo'lyapti:

بُلْدارْ مِينِى اُولاسْ كُوزْ — ***Bulnar*** *meni ulas köz,*
قَرا مْنْكِيزْ قِيزِيلْ يُوزْ — *Qara meŋiz qīzīl yüz.*
اَندِينْ تَمارْ تُوكالْ تُوزْ — *Andīn tamar tükäl tüz,*
بُلْدابْ يَنا اُول قَجارْ — ***Bulnap*** *yana ol qačar* (DLT.I.92).

Tarjimasi:
Maftun etar xumor ko'z,
Qora xolli, qizil yuz.
Undan tomar tugal tuz,
Asir qilar-u qochar.

Asarda keltirilgan she'riy parchalarda **takrir** san'ati ham keng qo'llanilgan. Takrir «takrorlash» ma'nosini ifodalovchi lafziy san'at bo'lib, she'rda u yoki bu so'zni takror qo'llashni nazarda tutadi. Takrorlash vositasida so'z ma'nosini, uning mohiyatini ta'kidlab ko'rsatish ushbu san'atning asosiy xususiyati sanaladi[2]. Misol uchun:

اُوذِيک مِينى قُمتِى — *Üδīk meni qumīttī,*
سَقِنْجْ اَنْكارْ يُمتِى — *Saqīnč* ***aŋar*** *yumīttī.*
كُونْكْلُومْ اَنْكارْ اَمِتِى — *Köŋlüm* ***aŋar*** *emitti,*
يُوزُمْ مِنِكْ سَرْغَرُورْ — *Yüzüm meniŋ sarğarur* (DLT.I.99).

Tarjimasi:
Sevgi dardi qo'ymaydi,
Sog'inch yana qiynaydi.
Ko'nglim unga to'ymaydi,
Yuzim mening sarg'ayur (A. Qayumov tar.).

Ushbu parchada *aŋar*, ya'ni uni, unga ma'nolarini anglatuvchi so'zi takrir san'atini hosil qilmoqda. She'rning asliyatida *aŋar* so'zi shaklan bir xil ko'rinishga ega bo'lsa-da, ma'nan bir-biriga yaqin tushunchalar bo'lgan olmoshlar *uni* va *unga* mazmunida tarjima qilinadi. Ushbu jihatdan kelib chiqib bu so'zlarning san'atlashuvini tajnis emas, takrir qilib belgiladik.

Yana bir misol:

قَيْغَشُبْ يَتْسا اَنِک يُوزِيْنْكا — *Qoyğašup yatsa anīŋ yüziŋä,*
اَلْسِقَرْ اُوكِنْ اَنِكْ سُوزِيْنْكا — *Alsïqar ökin anīŋ söziŋä,*
مِنْكْ كِشِى يُلْغِى بُلبْ اُوزِيْنكا — *Miŋ kiši yoluğī bolīp öziŋä,*
بِيرْكالَرْ اُدِنْ اَنكْ كُوزِيْنْكا — *Bergälär öδin anīŋ köziŋä* (DLT.I.245)

Tarjimasi:
Bag'rida uning boqsa yuziga,
Yo'qotar hushin uning so'ziga,.
Ming kishi shaydo bo'lib o'ziga,
Fido bo'larlar uning ko'ziga.

Yuqoridagi misrada *anīŋ* so'zining takror qo'llanishi orqali takrir san'ati hosil qilingan. *Anīŋ* so'zi tarjimada «uning» olmoshining ma'nosiga teng bo'ladi. Bu so'z she'rda uch o'rinda qo'llangan bo'lib, undagi ohangdorlikni ta'minlabgina qolmay, ta'kid ma'nosini ham anglatib kelmoqda.

Yana bir misol:

[1] Ҳожиаҳмедов А. . Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. – Тошкент: Шарқ", 1998. – Б. 70.
[2] Хожиаҳмедов А. Шеър санъатларини биласизми? – Тошкент: Шарқ", 2001. – Б. 20.

يَلْوِنْ اَنِكْ كوزِى — *Yalwïn anïŋ közi,*
يَلْكِنْ اَنِكْ اُوزِى — *Yelkin anïŋ özi.*
تُولُنْ اَيْنْ يُوزِى — Tolun ayïn yüzi,
يَرْدِى مَنِنكْ يُورَكْ — *Yardī menïŋ yürāk* (DLT.III.40).

Tarjimasi:
Sehrgar uning ko'zi,
Musofir uning o'zi.
To'lin oy kabi yuzi,
Yordi mening yuragim.

Anïŋ so'zi bir qarashda yuqoridagi she'rda uslubiy hato qo'llangandek tuyulishi mumkin, lekin uning qofiyalar oldidan kelishi o'sha qofiyalarga nisbatan ta'kidni bildirib kelmoqda. Bu o'rinda ham takrir san'atining mohirlik bilan qo'llanganini ko'rish mumkin.

«Devonu lug'ati-t-turk»da mubolag'ali misra, bayt yoki to'rtliklarga ham duch kelish mumkin. Mubolag'a usulidan yozma adabiyotda ham, xalq og'zaki ijodida ham keng foydalanilgan. O'tmishda, shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan mumtoz poetikaga oid tadqiqotlarda ham mubolag'a to'g'risida fikrlar uchraydi. Jumladan, Atoulloh Husayniy bu tasvir vositasi haqida «... mubolag'a andin iboratdurkim, so'zlaguchi bir nimani vasf etarda aning kuchliligi yoki kuchsizligining ortiqlig'in, ul ortiqliq odatdin tashqari yoki eshitkuchi ul vasf etuk ermas degan xayolga bormayturgan darajada, da'vo qilur», – deb yozsa, Fitrat «Adabiyot qoidalari» risolasida «Tuyg'ulari-mizdan birining juda kuchli ekanin bildirmak, uni bo'lg'anidin bir oz orttirib ko'rsatmakka mubolag'a deymiz. Mubolag'a chin (samimiy) bo'lsa, judayam oshirib yuborilmasa, zo'raki, yasama bo'lmasa, tuyg'ulardog'i kuchlilik – o'tkirlikni onglatishka katta yordam qiladir», - deb qayd etadi.

Asardagi lirik she'rlarda ko'proq oshiqning iztirobli holatlarini bo'rttirish yetakchi o'rin tutadi:

اَوْلَبْ مَنِى قَيْمَنْكِزْ — *Awlab meni qoymaŋīz,*
اَيِقْ اَيِبْ قَيْمَنْكِزْ — *Ayïq ayïb qaymaŋïz,*
اَقَر كُزُمْ اُشْ تَنْكِزْ — *Aqar közüm uš teŋiz,*
تَكْرا يُرا قُشْ اُجارْ — *Tegrä yürä quš učar* (DLT.II.51)

Tarjimasi:
Avval asir qilmangiz,
So'ngra tashlab qo'ymangiz.
Ko'z yoshlarim chun dengiz,
Tegrasida qush uchar (A. Qayumov tarj.).

Ma'shuqa va'dasiga vafo qilmaganligi sababli oshiqning ko'zidan tinimsiz yosh oqadi. Shoir fikricha, bu yoshlar yig'ilib, dengiz hosil qilyapti. Ko'z yoshlaridan paydo bo'lgan dengiz atrofida esa qushlar uchib yuribdi. Mubolag'a usuli bu yerda oshiqning ma'shuqa dardidagi azoblarini kuchaytirayapti.

Mubolag'a tablig', ig'roq, g'uluvv deb atalgan uch turga bo'linadi[1]. «Devonu lug'ati-t-turk»da keltirilgan parchalar ichida mubolag'aning g'uluvv turidan ham foydalanilgan. G'uluvv – bu aql ham bovar qilmaydigan, hayotda ham yuz berishi mumkin bo'lmaydigan tarzda tasvirlash[2]. Misol uchun:

يُكُرْدِى كَفَلْ اَتْ — *Yügürdi käwäl at,*
جَقِلْدِى قِزِلْ اُتْ — *Čaqïldï qïzïl ot,*
كُيُرْدِى اَرُتْ اُتْ — *Küyürdi arut ot,*
سَجْرَبْ اَنِنْ اُرْتَنُوزْ — *Sačrab ānin ortanur* (DLT.II.153).

[1] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 10.
[2] Ўша китоб. – Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 11.

Ma'nosi: Dushman otini ta'riflaydi: uchar ot chopganda, tuyoqlaridan o'tlar chaqnadi. Undan chaqnagan olov (sahro) xashaklarini kuydirib yubordi.

Bu parchada uchar ot chopganda, tuyoqlaridan o'tlar chaqnaydi. Undan chaqnagan olov (sahro) xashaklarini kuydirib yuboradi. Bu baytga e'tibor bersak, unda g'uluvv qo'llanganiga ishonch hosil qilamiz. Zero, uchar ot chopganda, uning oyoqlari ostidan olov chiqib, sahro o't-o'lanlarini kuydirishi mumkin emas.

«Devonu lug'ati-t-turk»da so'z san'ati – **istiora**-dan ham o'rinli foydalanilgan. Istiorada so'z yoki iboralar asl ma'nosida emas, balki boshqa ma'noda ishlatiladi va so'zlarning ko'chma ma'nosini tashbihiy bog'lanish asosida yuzaga keladi. Demak, so'zning ma'no ko'chishiga asoslanish istioraning mohiyatini tashkil etadi:

بیرنک منکا سوز کینا *Berің meŋā söz-kiyā,*

منکللک قرا تز قیا *Meŋlig qara tuz-qiya.*

یلڤن تتار کز کینا *Yalwīn tutar köz-kiyā,*

منکم منک بلنکا *Muŋum meniŋ biliŋ-ā* (DLT.III.371).

Ma'nosi: Menga birgina so'z ayt, va'da ber, ey qora xolli, yuzlari yoqimli, ey sehrli ko'zlari bilan ovlaydigan go'zal. Sevgidagi mening dardu alamlarimni tushun.

She'r tarjimasi quyidagicha:

Bergil menga so'zgina,
Ey qorako'z, boq qiyo.
Chehrang etdi mahliyo,
Holimni anglagil, ho (A. Qayumov tarj).

Mahmud Koshg'ariy *meŋ* so'ziga misol tariqasida keltirayotgan mazkur to'rtlikda istiora mavjuddir. Chunki ikkinchi misradagi *meŋlig qara* birikmasi o'z ma'nosida qo'llanayotgani yo'q, balki u orqali shoir mahbubaga murojaat etmoqda. Demak, bu yordagi birikma zamirida chiroyli qora xolli ma'shuqa tushunilayotganini sezish qiyin emas. Bu esa istioraning mahsulidir.

Navoiy asarlarida bu so'z ikki xil ma'no kasb etgan. Navoiy o'zining «Muhokamat ul-lug'atayn» asarida *meŋ* so'ziga quyidagicha ta'rif keltirib o'tadi: «... Va husn ta'rifida ulug'roq xolg'akim, turklar *meng* ot qo'yupturlar, alar (ya'ni forslar) ot qo'ymaydurlar. Turk bu ta'rifni bu nav' ado qilibdurkim,

bayt:

Aniŋ-kim, ol eŋindā meŋ yarattī,
Boyī birlā sačinī teŋ yarattī[1].

Yana bir she'riy parcha shunday keladi:

قانی اَقِبْ یُمُلْدِی *Qanī aqīb yümüldi,*

قابِی قَمُغْ تَشِلْدِی *Qabī qamuğ tešildi,*

اُلُکْ بِلا قُشُلْدِی *Ölük bilä qošuldī,*

تُغْمِشْ کُنی اُشْ بَتارْ *Tuğmīš küni uš batar* (DLT.II.146).

Ma'nosi: O'lgan narsa haqida yozadi: Huddi mesh yorilib, ichi to'la suyuq narsa to'lib oqqanday, uning qoni to'lib-toshib oqdi. Hozir o'likka yaqinlashdi. Uning tuqqan quyoshi, ya'ni baxtu davlati, hayoti endi botayotir.

Ushbu parchaning so'nggi *tuğmīš küni uš batar* misrasi orqali ummi qayta nomlamoqda. Ya'ni uning quyoshi botmoqda deb, umr nazarda tutilmoqda.

She'rlarda yana boshqa ma'naviy san'atlar ham juda mohirlik bilan qo'llanilgan. Misol uchun **tashbih** san'ati. Tashbih shunday san'atki, biror predmet yoki hodisaning belgi xususiyatini xuddi shunday belgi, xususiyatga ega bo'lgan boshqa predmet, narsa yoki hodisa orqali ifodalash, solishtirish, o'zaro qiyoslash va shu tariqa tasvirlanayotgan narsa, hodisa yoki voqeaning ayrim xususiyatlarini kitobxonga jonliroq, yorqinroq hamda ta'sirchan etkazib berish tashbih san'atining mohiyatini tashkil qiladi.

Tashbih o'tmish adabiyotda qo'llanilgan badiiy san'atlar ichida alohida o'rinni egallaydi. Chunki shoirning mahorati, xususan, uning tasavvur va xayol olamining boy yoki qashshoqligi tashbih orqali namoyon bo'ladi.

«Devonu lug'ati-t-turk»dagi she'riy parchalarning mavzu doirasi rang-barangligi sababli undagi tashbihlarning qo'llanishi ham keng qamrovlidir:

[1] Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 16 том. – Тошкент: Фан, 1988. – Б. 13.

يَلْفِنْ اَنکْ کوزِی *Yalwïn anïŋ közi,*

يَلْکِنْ اَنکْ اُوزِی *Yelkin anïŋ özi.*

تُولُنْ اَيِنْ يُوزِی Tolun ayïn yüzi,

يَرْدِی مَنِکْ يُورَکْ *Yardï meniŋ yüräk* (DLT.III.40).

Mahmud Koshg'ariy keltirgan she'riy parcha talqini shunday: she'rda bitiluvcha suyukli yorning, mahbubaning ko'z qarashi shu qadar jon oluvchan, kishini bir ko'rishdayoq o'ziga tortadiki, shoir uni tashbeh asosida kishi ko'nglini ovlaydigan sehrgarga mengzaydi. Yorning qadam bosib oshiq oldidan har mahal o'tib turishini go'yo, *musofir* kabidir, deb ataydi. Bu o'rinda mahbubaning qo'nimsizligi, diydorini juda oz fursat ko'rsatishiga ishora etilmoqda.

Filolgiya fanlari doktori, professor Q.P. Sodiqov *yelkin* so'zi ustida quyidagi fikrlarini aytib o'tgan:

Yelkin so'zi devonda o'rnak uchun keltirilgan she'riy uzindilarda ham uchraydi. Tabiiyki, u yerda ishlatilgani ham arabcha tarjimada *musafir* deb o'girilgan.

Asarning uyg'urcha nashrida bu to'rtlik shunday talqin qilingan:

[*Unïŋ közi sehirlik, unïŋ özi musapïrdur, yüzi tolun aydäk, (unïŋ beqišliri) meniŋ yürigimni yardï*].

Süyümlügini tariplap šundaq däydü: unïŋ közlirdä sehir bar, u šunïŋ bilän (meni) ovlaydu, özi musaqïrdür, yüzi tolun aydäk, beqišliri bilän meni etip, yürigimni yardï (DLTuyg'ur.III.43).

Asarning qozoq olimlari tarafidan yaratilgan ruscha tarjimasida so'z ma'nosi quyidagicha berilgan: «V glazax yego charы (on plenyayet), dusha yego – strannitsa, litso – polnaya luna. (On brosil na menya vzglyad,) i serdtse moye razbilos» (DLTkaz.776).

«Devonu lug'ati-t-turk»ning inglizcha tarjimasida *yelkin* (*yelgin*) so'zi ikki xil ma'noda izohlangan: biri *traveller* («sayohatchi, sayyoh»), ikkinchisi *horseman* («otliq») (DLT.engl.222). Bu tarjimada birinchisi so'zma-so'z o'girilganda to'g'ri, lekin ikkinchisi qusurli. Chunki *horseman* «otliq» emas, *yelkin atlïğ*, ya'ni «otli musofir» – *horseman*[1].

Turkiy she'rda *yelkin* so'zi arabcha tarjimada *musafir* (مسافر) deb berilgan. Buni aynan o'girilsa, ta'rifanayotgan kimsa chet ellik musofirday bo'lib qoladi. Binobarin, bu o'rinda *yelkin* biz bilganday «musofir» emas, balki «elday beqaror, ko'zdan tezda yo'qoluvchi, qo'nimsiz» ma'nosidadir. Kelib chiqishi ham *yel* (yel, shamol) bilan bog'lanadi[2].

Asarda keltirilgan she'rlarda **tashbihi mutlaq**dan ham foydalanilgan. Bu «Aniq o'xshatish» ma'nosini ifodalovchi bu xil san'at *go'yo, singari, - day, - dek* kabi so'z yoki qo'shimchalar (odobi tashbih) qo'llangan tashbihni anglatadi[3]. Misol uchun:

اُبْکَمْ کَلِبْ اُغْرَدِمْ *Öpkam kelib oğradïm,*

اَرْسْلَنْ لَيُو کُکْرَدِمْ *Arslanlayu kökrädim,*

اَلْبْ لاَرْ بَشِنْ تُغْرَدِمْ *Alplar bašïn toğradïm,*

اَمْدِی مَنِي کِمْ تُتَارْ *Emdi meni kim tutar* (DLT.I.145-146).

Ma'nosi: Dushmanga qarshi g'azab bilan, nafrat bilan xezlandim, arslonlar kabi na'ra tortdim, botirlarning boshlarini tilmaladim, so'ng ma'raka o'rtasida, «emdi meni kim tuta oladi?» deb baqirdi.

Ushbu parchada *arslanlayu kökrädim* misrasida tashbihi mutlaq qo'llanilgan.

She'riy baytlarda ma'no jihatdan bir-biriga yaqin tushunchalarni anglatuvchi so'zlarni qo'llab, ular vositasida obrazli ifodalar, lavhalar yaratish san'ati **tanosub** deb ataladi[4]. Biz buni quyidagi parchada ko'rishimiz mumkin:

[1] Содиқов Қ. "Девону луғатит турк"да кечган yelkin-elkin сўзи ва унинг шеърий узиндилардаги семантикаси // Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги. – Тошкент, 2014. – № 2. – Б. 25.

[2] Содиқов Қ. "Девону луғатит турк"да кечган *yelkin-elkin* сўзи ва унинг шеърий узиндилардаги семантикаси // Шарқ таржимашунослиги: тарихи, ҳозирги куни ва келажаги. – Тошкент, 2014. – № 2. – Б. 25.

[3] Ҳожиаҳмедов А. Мумтоз бадиият малоҳати. –Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 18.

[4] Ўша китоб. –Тошкент: Шарқ, 1999. – Б. 18.

اَمْدِی اُودنْ اُدُنْدِنْ اُدِنْدِی *Emdi uδīn uδundī,*

کِیدِنْ تِلِمْ اُکُنْدِی *Kedin telim ökündi,*

اِلِنْ بُلغالِ اِکنْدِی *El bulğalī ikändi,*

اَنْداغْ اَرکْ کم اُتارْ *Andağ erig kim utar* (DLT.I.209).

Ma'nosi: Dushman endi uyqusidan uyg'ondi, keyin kelishuv vaqtida bosh tortganidan ko'p o'kindi. Unday odamni mendan boshqa kim yengadi.

Bu parchada *uδīn uδundī* so'zlari bir-biriga yaqin ma'noli so'z bo'lib, tanosub san'atini hosil qilgan.

«Devonu lug'ati-t-turk» asarida keltirilgan she'rlarda **qaytarish** san'ati, ya'ni baytdagi mazkur o'rinlardan biridagi so'zning yana boshqa bir o'rinda takrorlanishini kuzatish mumkin. Asardagi jangnoma she'rlardan birida qaytarishning radd ul-aruz il-al-ajuz (birinchi misra oxiridagi so'zning bayt oxirida kelishi) turi mavjud:

کَلْدِی بَرُو اَرْتُرُو *Keldī berü arturu,*

بِیرْدِی اِیلِنْ اَرْتُرُو *Berdī elin arturu,*

مُندا قَلِبْ اُلْتُرُو *Munda qalīb olturu,*

بُکْرِی بُلِبْ اُنْ بُتارْ *Bugrī bolīb in bütār* (DLT.I.225).

Ma'nosi: Asir qilgan bek haqida so'z boradi: bek haddan ortiq kekkayib, haddidan oshib, mag'rurlanib ko'p askar bilan bizga keldi. Keyin bizga mamlakatini hadya qildi. Yonimizda tovushi bo'g'iq, mukkayib, engashib o'ltirib qoldi.

Ushbu parchada birinchi misradagi *arturu* so'zi ikkinchi misra oxirida kelib, qaytarish san'atini hosil qilgan.

Yana bir misol:

بِکِمْ اُوزِنْ اُغُرْلادِی *Begim özin oğurladī,*

یَرغ بِیلِب اُغُرْلادِی *Yarağ bilib oğurladī.*

اُلُغْ تَنْکرِی اَغِرْلادِی *Uluğ täŋri ağirladī,*

اَنِنْ قُتْ قُقْ تُرِی تُغْدِی *Anin qut quw türi tuğdī* (DLT.I.293-294).

Ma'nosi: Tangutlarning begi dushmanni qo'lga tushirish uchun pistirmaga yashiringanini ta'riflab yozadi: begim fursat kutib, o'zini askardan chetga olib yashirindi, Xudo unga zafar berdi. Ko'kragi ko'tarilib, baxti, kuchi, davlati ortdi.

Ushbu parchada birinchi misradagi *oğurladī* so'zi ikkinchi misra oxirida kelib, qaytarish san'atini hosil qilgan.

Narsa, voqea-hodisa, aniqlovchi, izohlovchi, tavsiflovchi so'zni she'rda qo'llash sifatlash (epitet) deyiladi. Buni asardagi quyidagi parchalarda ham ko'rishimiz mumkin:

كُورْكلُوكْ تُنوغْ اُوزُنكَا *Körklüg tonuğ özüŋä,*

تَتلِيغْ اَشِيغْ اَذِينْقا *Tatlïğ ašïğ aδïnqa,*

تُوتغِيلْ قُنُوقْ اَغرْلِيغْ *Tutğil qonuq ağirliğ,*

يَذْسُونْ جَقِينكْ بُذُونْقا *Yaδsun yawïŋ buδunqa* (DLT.I.80).

Ma'nosi: «Ko'rkam, chiroyli to'ning o'zingga, shirin ovqatingni boshqalarga ata; qo'noqlarni hurmatla, toki, shuhrating el-yurtga taralsin».

Ushbu parchada *körklüg tonuğ* va *tatlïğ ašïğ* birikmalari epitet bo'lib kelmoqda.

Yana:

اغلم سنكا قذرمن *Oğulum seŋä qoδurmen*

اردم اكت خمارو *Ardam ögüt xumaru*

بلكا ارک بلب سن *Bilgä erig bolup sen*

بقل اننک تبارو *Baqqïl anïŋ tabaru* (DLT.III.444).

Ma'nosi: O'g'lim, senga meros qilib ezgu xulq, odobni qoldiraman. Agar ilmli, aqlli odamlarga yo'liqsang, ularga yaqinlash, ulardan foydalan.

Bu parchada esa *ardam ögüt* va *bilgä erig* birikmasi epitetni hosil qilgan. Ya'ni ikkala o'rinda ham o'z sifati bilan birga kelayotgan so'z qo'llangan.

Xulosa qilib aytganda, janrlarning takomilida badiiy tasvir vositalarining vazifasi muhim omil ekani namoyon bo'ladi. Qadimgi turkiy yozma yodgorliklarda qo'llanilgan badiiy tasvir vositalari ilgari surilayotgan fikrlarni, misralarda berilayotgan mazmunni ifodalash uchun vosita bo'lib xizmat qiladi va, shu bilan birga, ular misra, bayt yoki asarning jozibaliligi, obrazliligi, ta'sir kuchini oshirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi.

«Devonu lug'ati-t-turk» asarida badiiy tasvir vositalari bilan bir qatorda alliteratsiya ham keng qo'llanilgan. Har bir she'riy parcha o'zgacha ohangdorlikka ega. Badiiy tasvir vositalari esa she'rlarda ustalik bilan qo'llangan va ular she'rning semantik ma'nosini ochib berishda katta ahamiyat kasb etadi.

Rezyume. Maqolada Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'ati-t-turk» asaridagi she'riy uzindilarning badiiy xususiyatlari tahlil qilingan. Asarda qo'llangan tajnis, takrir, mubolag'a, istiora, tashbih, tanosub, qaytarish va sifatlash kabi badiiy san'atlarning poetik vazifalari yoritilgan. Tadqiqot natijasida ushbu badiiy vositalar qadimgi turkiy she'riyatning obrazliligi, ohangdorligi va ta'sirchanligini ta'minlovchi muhim omillardan biri ekanligi aniqlangan.

Resume. The article analyzes the artistic features of poetic fragments in Mahmud al-Kashgarï's Dïwān Lughāt al-Turk. It examines poetic devices such as paronomasia, repetition, hyperbole, metaphor, simile, semantic harmony, reiteration, and epithet. The study concludes that these artistic techniques play an important role in enhancing the imagery, expressiveness, and aesthetic value of ancient Turkic poetry.

Резюме. В статье исследуются художественные особенности поэтических фрагментов произведения Махмуда Кашгари «Диван лугат ат-тюрк». Рассматриваются такие поэтические приёмы, как таджнис, повтор, гипербола, метафора, сравнение, танасуб, повторение и эпитет. Анализ показывает, что данные художественные средства обеспечивают образность, выразительность и музыкальность древнетюркской поэзии.